

## NAVOIY VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 - yil yanvar-oktabr\*)

Navoiy viloyati bo'yicha joriy yilning yanvar-oktabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 5 178,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8,3 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 681,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 72,6 %), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 4 496,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 2,5 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 733,0 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 10,7 %ga kamaygan) tashkil etdi.

Chakana savdo tovar aylanmasi hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan viloyat hududlari qatoriga Navoiy shahri, Karmana tumani, Qiziltepa tumani, Xatirchi tumani va Zarafshon shahrini misol keltirishimiz mumkin.


### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd.so'm)



\*-dastlabki ma'lumotlar

2018 - yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan o'sish sur'atlari Navoiy shahri, Xatirchi tumani, Karmana tumani, Navbahor tumanlarida qayd etildi. Shuningdek, eng yuqori ko'rsatkich viloyatda Navoiy shahriga va aksincha eng past ko'rsatkich Uchquduq tumaniga to'g'ri kelmoqda.

## Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 72,6 % ga o'sdi va 681,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 13,2 % ulushiga to'g'ri keladi.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining  
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

|                            | Jami<br>(mlrd. so`m) | Jamidan                            |                 |                                       |                 |
|----------------------------|----------------------|------------------------------------|-----------------|---------------------------------------|-----------------|
|                            |                      | Yirik<br>korxonalar<br>(mlrd.so`m) | Ulushi,<br>% da | Kichik<br>tadbirkorlik<br>(mlrd.so`m) | Ulushi,<br>% da |
| <b>Navoiy viloyati</b>     | <b>5 178,8</b>       | <b>681,9</b>                       | <b>13,2</b>     | <b>4 496,9</b>                        | <b>86,8</b>     |
| <i>shahar va tumanlar:</i> |                      |                                    |                 |                                       |                 |
| Navoiy shahar              | 1 836,1              | 648,6                              | 35,3            | 1 187,5                               | 64,7            |
| Zarafshon shahar           | 461,4                | 7,9                                | 1,7             | 453,5                                 | 98,3            |
| Karmana tuman              | 784,6                | 1,9                                | 0,2             | 782,7                                 | 99,8            |
| Konimex tuman              | 137,6                | 0,7                                | 0,5             | 136,9                                 | 99,5            |
| Qiziltepa tuman            | 617,2                | 7,0                                | 1,1             | 610,2                                 | 98,9            |
| Navbahor tuman             | 292,3                | 0,8                                | 0,3             | 291,5                                 | 99,7            |
| Nurota tuman               | 201,5                | 2,3                                | 1,1             | 199,2                                 | 98,9            |
| Tomdi tuman                | 37,6                 | 0,2                                | 0,6             | 37,4                                  | 99,4            |
| Uchquduq tuman             | 231,9                | 0,6                                | 0,2             | 231,3                                 | 99,8            |
| Xatirchi tuman             | 578,6                | 11,9                               | 2,1             | 566,7                                 | 97,9            |

Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko`ra 4 496,9 mlrd. so`mni tashkil etib, 2018 - yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan 2,5 % ga o`sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 86,8 % ga teng kelmoqda.

**Chakana savdo tovar aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi**




Joriy yilning yanvar-oktabr oylari tahliliy natijalariga qaraganda, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo`yicha Uchquduq (99,8%), Karmana (99,8%), Navbahor (99,7%), Konimex (99,5%) tumanlari yetakchilik qilmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 13,2 % ni tashkil etib, eng katta ulush asosan Navoiy shahrida (35,3 %) va Xatirchi tumanida (2,1 %) kuzatilgan.

**Mulkchilik shakli bo'yicha**  
**chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)**

|                            | <b>Jami</b>    | <b>Nodavlat mulki</b> | <b>Davlat mulki</b> |
|----------------------------|----------------|-----------------------|---------------------|
| <b>Navoiy viloyati</b>     | <b>5 178,8</b> | <b>5 146,3</b>        | <b>32,5</b>         |
| <i>shahar va tumanlar:</i> |                |                       |                     |
| Navoiy shahar              | 1 836,1        | 1 803,7               | 32,4                |
| Zarafshon shahar           | 461,4          | 461,4                 | -                   |
| Karmana tuman              | 784,6          | 784,5                 | 0,1                 |
| Konimex tuman              | 137,6          | 137,6                 | -                   |
| Qiziltepa tuman            | 617,2          | 617,2                 | -                   |
| Navbahor tuman             | 292,3          | 292,3                 | -                   |
| Nurota tuman               | 201,5          | 201,5                 | -                   |
| Tomdi tuman                | 37,6           | 37,6                  | -                   |
| Uchquduq tuman             | 231,9          | 231,9                 | -                   |
| Xatirchi tuman             | 578,6          | 578,6                 | -                   |

**Mulkchilik shakli bo'yicha**  
**chakana savdo tovar aylanmasi ulushi, (%)da**  
**2019- yil yanvar-oktabr**




Yuqoridagi diagrammadan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 - yil yanvar-oktabr oylarida 5 146,3 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 - yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,4 foizga kamaydi.

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha chakana savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 - yil yanvar-oktabr oylarida 32,5 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 - yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,4 foizga ko'paydi.


Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (35,5 foiz), Karmana tumani (15,1 foiz), Qiziltepa tumani (11,9 foiz), Xatirchi tumani (11,2 foiz), va Zarafshon shahri (8,9 foiz) chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

### Chakana savdo tovar aylanmasida viloyat hududlarining ulushi



Jumladan, 2019 - yilning yanvar- oktabr oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,4 % ni tashkil etib, 124,2 mlrd. so`mga yetdi yoki o`tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 % o`shishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 91,9 % ulushi kichik tadbirkorlik sub`ektlari ulushiga to`g`ri kelmoqda.

**Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlari  
savdo aylanmasi hajmi (mlrd.so`m) va o`shish sur`atlari**



Shuningdek, ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi 10,1 mlrd. so`mni (o`tgan yilning shu davriga nisbatan 16,9 % ga kamaygan), kichik tadbirkorlik sub`ektlarining tovar aylanmasi 114,1 mlrd. so`mni (o`shish sur`ati 2,8 %) tashkil etdi.

**Viloyatda yirik umumiy ovqatlanish korxonalarining  
tovar aylanmasi hajmi**

|                        | Jami<br>(mlrd. so`m) | O'sish<br>sur'ati,<br>% da | Shundan                             |                            |                 |
|------------------------|----------------------|----------------------------|-------------------------------------|----------------------------|-----------------|
|                        |                      |                            | Yirik<br>korxonalar<br>(mlrd. so`m) | O'sish<br>sur'ati,<br>% da | Ulushi,<br>% da |
| <b>Navoiy viloyati</b> | <b>124,2</b>         | <b>100,9</b>               | <b>10,1</b>                         | <b>83,1</b>                | <b>8,1</b>      |
| <i>shaharlar</i>       |                      |                            |                                     |                            |                 |
| Navoiy shahar          | 48,4                 | 99,2                       | 10,0                                | 84,9                       | 20,7            |
| Zarafshon shahar       | 14,8                 | 102,5                      | -                                   | -                          | -               |
| <i>tumanlar:</i>       |                      |                            |                                     |                            |                 |
| Karmana tuman          | 22,8                 | 102,8                      | 0,1                                 | 93,4                       | 0,4             |
| Konimex tuman          | 2,6                  | 101,7                      | -                                   | -                          | -               |
| Qiziltepa tuman        | 10,8                 | 101,8                      | -                                   | -                          | -               |
| Navbahor tuman         | 4,1                  | 101,0                      | -                                   | -                          | -               |
| Nurota tuman           | 3,0                  | 95,3                       | -                                   | -                          | -               |
| Tomdi tuman            | 1,3                  | 102,5                      | -                                   | -                          | -               |
| Uchquduq tuman         | 5,0                  | 102,1                      | -                                   | -                          | -               |
| Xatirchi tuman         | 11,4                 | 102,0                      | -                                   | -                          | -               |


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibidagi ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan viloyat hududlari qatoriga Navoiy shahri, Karmana tumani, Zarafshon shahrini, Xatirchi tumani, Qiziltepa tumanini misol keltirishimiz mumkin.

**Viloyatda kichik umumiy ovqatlanish korxonalarining  
tovar aylanmasi hajmi**

|                        | Jami<br>(mlrd.so`m) | O'sish<br>sur'ati,<br>% da | Shundan                                |                            |                 |
|------------------------|---------------------|----------------------------|--|----------------------------|-----------------|
|                        |                     |                            | Kichik<br>tadbirkorlik<br>(mlrd. so`m) | O'sish<br>sur'ati,<br>% da | Ulushi,<br>% da |
| <b>Navoiy viloyati</b> | <b>124,2</b>        | <b>100,9</b>               | <b>114,1</b>                           | <b>102,8</b>               | <b>91,9</b>     |
| <i>shaharlar</i>       |                     |                            |  |                            |                 |
| Navoiy shahar          | 48,4                | 99,2                       | 38,4                                   | 103,7                      | 79,3            |
| Zarafshon shahar       | 14,8                | 102,5                      | 14,8                                   | 102,5                      | 100,0           |
| <i>tumanlar:</i>       |                     |                            |  |                            |                 |
| Karmana tuman          | 22,8                | 102,8                      | 22,6                                   | 102,9                      | 99,6            |
| Konimex tuman          | 2,6                 | 101,7                      | 2,6                                    | 101,8                      | 100,0           |
| Qiziltepa tuman        | 10,8                | 101,8                      | 10,8                                   | 102,2                      | 100,0           |
| Navbahor tuman         | 4,1                 | 101,0                      | 4,1                                    | 101,6                      | 100,0           |
| Nurota tuman           | 3,0                 | 95,3                       | 3,0                                    | 101,5                      | 100,0           |
| Tomdi tuman            | 1,3                 | 102,5                      | 1,3                                    | 102,5                      | 100,0           |
| Uchquduq tuman         | 5,0                 | 102,1                      | 5,0                                    | 102,1                      | 100,0           |
| Xatirchi tuman         | 11,4                | 102,0                      | 11,4                                   | 102,0                      | 100,0           |

Quyidagi diagrammadan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019 - yil yanvar-oktabr oylarida 114,3 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 - yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 4,8 foizga kamaydi.

**Mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish  
korxonalari savdo aylanmasi ulushi, (%)da  
2019- yil yanvar-oktabr**



Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 - yil yanvar-oktabr oylarida 9,9 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 - yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 4,8 foizga ko'paydi.

**Mulkchilik shakli bo'yicha  
ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)**


|                            | Jami         | Nodavlat mulki | Davlat mulki |
|----------------------------|--------------|----------------|--------------|
| <b>Navoiy viloyati</b>     | <b>124,2</b> | <b>114,3</b>   | <b>9,9</b>   |
| <i>shahar va tumanlar:</i> |              |                |              |
| Navoiy shahar              | 48,4         | 38,6           | 9,8          |
| Zarafshon shahar           | 14,8         | 14,8           | -            |
| Karmana tuman              | 22,8         | 22,7           | 0,1          |
| Konimex tuman              | 2,6          | 2,6            | -            |
| Qiziltepa tuman            | 10,8         | 10,8           | -            |
| Navbahor tuman             | 4,1          | 4,1            | -            |

|                |      |      |   |
|----------------|------|------|---|
| Nurota tuman   | 3,0  | 3,0  | - |
| Tomdi tuman    | 1,3  | 1,3  | - |
| Uchquduq tuman | 5,0  | 5,0  | - |
| Xatirchi tuman | 11,4 | 11,4 | - |

## NAVOIY VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019- yil yanvar-oktabr\*)

2019 - yil yanvar-oktabr oylarida viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1 749,0 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 - yilning shu davriga nisbatan 5,3 foizga kamaydi.



\*-dastlabki ma'lumotlar

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmiga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019 - yil yanvar-oktabr oylari yakunlariga ko'ra 987,6 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 92,4 %ni tashkil qildi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 56,5 %ni tashkil qilmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasining tarkibida kichik tadbirkorlik sub'ektlari aylanmasining ulushi esa 43,5 %ni tashkil etdi.


**Ulgurji savdo tovar aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning hajmi**

|                        | <b>Jami<br/>(mlrd.so`m)</b> | <b>Kichik<br/>korxonalar<br/>(mlrd.so`m)</b> | <b>Ulushi,<br/>%da</b> | <b>Yirik<br/>korxonalar<br/>(mlrd.so`m)</b> | <b>Ulushi,<br/>%da</b> |
|------------------------|-----------------------------|--|------------------------|---|------------------------|
| <b>Navoiy viloyati</b> | <b>1 749,0</b>              | <b>761,4</b>                                 | <b>43,5</b>            | <b>987,6</b>                                | <b>56,5</b>            |
| Navoiy shahar          | 1 234,8                     | 248,1  | 20,1                   | 986,7                                       | 79,9                   |
| Zarafshon shahar       | 40,6                        | 40,6   | 100,0                  | -   | -                      |
| Karmana tuman          | 277,9                       | 277,9  | 100,0                  | -   | -                      |
| Konimex tuman          | 8,1                         | 8,1  | 100,0                  | -   | -                      |
| Qiziltepa tuman        | 52,5                        | 52,5   | 100,0                  | -   | -                      |
| Navbahor tuman         | 58,1                        | 58,1   | 100,0                  | -   | -                      |
| Nurota tuman           | 6,0                         | 6,0  | 100,0                  | -   | -                      |
| Tomdi tuman            | 1,6                         | 1,6  | 100,0                  | -   | -                      |
| Uchquduq tuman         | 10,3                        | 10,3   | 100,0                  | -   | -                      |
| Xatirchi tuman         | 59,1                        | 58,2   | 98,5                   | 0,9   | 1,5                    |

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari tahlili asosida viloyatda faqatgina Navoiy shahrida va Xatirchi tumanida yirik korxonalar tomonidan ulgurji savdo tovar aylanmasi mavjud bo'lib, qolgan 8 ta hududda asosan ulgurji savdo tovar aylanmasi kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan amalga oshirilgan.

Shuningdek, shahar va tumanlar orasida eng yuqori ulgurji savdo tovar aylanmasiga ega bo'lgan hudud bu Navoiy shahri bo'lib, uning tovar aylanmasi 1234,8 mlrd. so'mni tashkil etadi (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 93,5 %ni tashkil qiladi.)

### Mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi, (%)da 2019 - yil yanvar- oktabr



### Hududlar kesimida mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, (mlrd. so'm)


|                            | Jami           | Nodavlat mulki | Davlat mulki |
|----------------------------|----------------|----------------|--------------|
| <b>Navoiy viloyati</b>     | <b>1 749,0</b> | <b>1 748,1</b> | <b>0,9</b>   |
| <i>shahar va tumanlar:</i> |                |                |              |
| Navoiy shahar              | 1 234,8        | 1 234,8        | -            |
| Zarafshon shahar           | 40,6           | 40,6           | -            |
| Karmana tuman              | 277,9          | 277,0          | 0,9          |
| Konimex tuman              | 8,1            | 8,1            | -            |
| Qiziltepa tuman            | 52,5           | 52,5           | -            |
| Navbahor tuman             | 58,1           | 58,1           | -            |
| Nurota tuman               | 6,0            | 6,0            | -            |
| Tomdi tuman                | 1,6            | 1,6            | -            |

|                |      |      |   |
|----------------|------|------|---|
| Uchquduq tuman | 10,3 | 10,3 | - |
| Xatirchi tuman | 59,1 | 59,1 | - |

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmining asosiy qismi nodavlat mulki hisoblanib, 2019-yil yanvar-oktabr oylarida 1748,1 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018- yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,01 foizga ko'paydi.

Xuddi shuningdek, mulkchilik shakli bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmidagi davlat mulki 2019 - yil yanvar-oktabr oylarida 0,9 mlrd. so'mni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich 2018 - yilning mos davriga nisbatan (umumiy hajmga nisbatan ulushda) 0,01 foizga kamaydi.

**Ulgurji savdo tovar aylanmasida  
viloyat hududlarining ulushi**





Tahlil natijalariga ko'ra Navoiy viloyatida ulgurji savdo tovar aylanmasining asosini Navoiy shahridagi ulgurji savdo tovar aylanmasi tashkil qiladi va xuddi shuningdek ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Navoiy shahri (70,6 foiz), Karmana tumani (15,9 foiz) va Xatirchi tumani (3,4 foiz) ulgurji savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va  
savdo statistikasi bo'limi  
Tel.: (0871) 230-84-36